

NOSPESIFIK YARALI KOLITDA YALLIG'LANISH FAOLLIGINI BAHOLASH ORQALI VA DAVOLASH TAKTIKASINI OPTIMALLASHTIRISH

Dusanov Abdigafur Dusanovich - Samarqand davlat tibbiyot universiteti 4-son
ichki kasalliklar kafedrasida dotsenti

Nosirova Dildora Erkinovna - Samarqand davlat tibbiyot universiteti 4-son ichki
kasalliklar kafedrasida assistenti

Ismailov Jamshid Abduraimovich - Samarqand davlat tibbiyot universiteti 4-son
ichki kasalliklar kafedrasida mudiri PhD, dotsent

Urinova Xumora Uktam qizi – Samarqand davlat tibbiyot universiteti talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu keltirilgan maqolada nospesifik yarali kolit (NYaK) bilan kasallangan bemorlarning hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan noinvaziv diagnostika va davolash dasturlari samaradorligi natijalari haqidagi o'rganishlar natijalari keltirilgan. Tadqiqot doirasida 90 nafar bemorlar bromxial astma bilan kasallangan bemorlar jalb qilingan bo'lib: 1-guruhga (n=50) maxsus usulda fekal laktoferrin aniqlanib undan keyin davolash taktikasi tanlangan, 2-guruhga (n=40) standard diagnostika va davolash usullari tayinlandi. Diagnostika va davolash dasturining klinik samaradorligi SF-36 so'rovnomasi natijalari asosida baholandi. Tadqiqot natijasidagi olingan ma'lumotlar bronxial astma bilan og'rigan bemorlarga nisbatan kompleks diagnostikaning yuqori samaradorligini ko'rsatadi. Tadqiqotning ahamiyati shundaki bemorlarni tashxislashda yangi, samarali yondashuvlarni ishlab chiqish uchun asos yaratadi.

Kalit so'zlar: Bronxial astma, surunkali yurak etishmovchiligi, davolash, rehabilitatsiya, hayot sifatini yaxshilash.

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлены результаты исследований эффективности неинвазивных программ диагностики и лечения, направленных на улучшение качества жизни пациентов с неспецифическим язвенным колитом (НЯК). В исследование были включены 90 пациентов с НЯК: в 1-й группе (n=50) был определен фекальный лактоферрин специальным методом с последующим выбором тактики лечения, 2-й группе (n=40) были назначены стандартные методы диагностики и лечения. Клиническая эффективность программы диагностики и лечения оценивалась на основании результатов опросника SF-36. Полученные в результате исследования данные свидетельствуют о высокой эффективности комплексной диагностики у пациентов с НЯК. Значимость исследования заключается в том, что оно создает основу для разработки новых, эффективных подходов к диагностике пациентов.

Ключевые слова: Бронхиальная астма, хроническая сердечная недостаточность, лечение, реабилитация, улучшение качества жизни.

ANNOTATION

This article presents the results of studies on the effectiveness of non-invasive diagnostic and treatment programs aimed at improving the quality of life of patients with nonspecific ulcerative colitis (NUC). The study involved 90 patients with bronchial asthma: the 1st group (n=50) underwent a special method for detecting fecal lactoferrin, after which treatment tactics were selected, while the 2nd group (n=40) was prescribed standard diagnostic and treatment methods. The clinical effectiveness of the diagnostic and treatment program was assessed based on the results of the SF-36 questionnaire. The data obtained from the study demonstrate the high effectiveness of comprehensive diagnostics for patients with bronchial asthma. The significance of the research lies in the fact that it provides a foundation for developing new, effective approaches to diagnosing patients.

Keywords: Bronchial asthma, chronic heart failure, treatment, rehabilitation, improvement of quality of life.

Nospesifik yarali kolit (NYaK) surunkali yallig'lanishli ichak kasalliklari guruhiga mansub bo'lib, yo'g'on ichak shilliq qavatining immun vositachiligidagi yallig'lanishi, eroziya va yaralar hosil bo'lishi bilan tavsiflanadi. Kasallikning qaytalanuvchi va progressiv kechishi, uzoq muddat davom etishi hamda og'ir asoratlar rivojlanish xavfining yuqoriligi NYaKni zamonaviy gastroenterologiyaning dolzarb muammolaridan biriga aylantiradi. Ushbu kasallik bemorlarning mehnatga layoqatining pasayishi, hayot sifatining yomonlashuvi va uzoq muddatli davolash zarurati bilan bog'liq bo'lib, sog'liqni saqlash tizimi uchun muhim tibbiy va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyat kasb etadi [3]. Oxirgi yillarda dunyo miqyosida NYaK bilan kasallanish ko'rsatkichlarining oshib borayotgani qayd etilmoqda. Bu holat turmush tarzining o'zgarishi, ovqatlanish xususiyatlari, atrof-muhit omillari va immun tizim regulyatsiyasining buzilishi bilan izohlanadi. Kasallik ko'pincha yosh va mehnatga layoqatli aholi orasida uchrashi uning ijtimoiy ahamiyatini yanada oshiradi [1]. Shu sababli NYaKni erta aniqlash, yallig'lanish faolligini aniq baholash va samarali davolash taktikasini ishlab chiqish zamonaviy tibbiyotning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. NYaK patogenezida ichak shilliq qavatida kechuvchi immun yallig'lanish jarayoni yetakchi o'rin tutadi. Ushbu jarayon neyetrofillar, limfotsitlar, makrofaglar hamda turli yallig'lanish mediatorlari ishtirokida kechib, shilliq qavatning strukturaviy shikastlanishiga, epitelial barer funksiyasining buzilishiga va mahalliy mikrosirkulyatsiya o'zgarishlariga olib keladi [2]. Natijada klinik jihatdan diareya, qorin og'rig'i, tenesmlar va ichakdan qon ketishi kabi belgilar namoyon bo'ladi. Kasallik faolligi darajasi klinik kechishning og'irligini, asoratlar xavfini va davolash taktikasini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Amaliyotda nospesifik yarali kolit faolligini baholash ko'pincha klinik simptomlar, laborator ko'rsatkichlar va endoskopik tekshiruvlar asosida amalga oshiriladi [4]. Biroq klinik belgilar har doim ham ichak shilliq qavatidagi haqiqiy yallig'lanish darajasini to'liq aks ettirmaydi. Ayrim holatlarda klinik remissiya fonida ham endoskopik yoki gistologik faollik saqlanib qolishi mumkin. Endoskopik tekshiruvlar esa invazivligi, bemor uchun noqulayligi, takroriy o'tkazishdagi cheklovlar va iqtisodiy xarajatlar bilan bog'liq bo'lgani sababli har doim ham optimal baholash usuli hisoblanmaydi.

Shu munosabat bilan so'nggi yillarda nospesifik yarali kolitda yallig'lanish faolligini baholash uchun noinvaziv, ishonchli va takroriy qo'llash mumkin bo'lgan usullarni joriy etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu borada najasda aniqlanadigan

immunologik biomarkerlar alohida ilmiy va amaliy qiziqish uyg'otmoqda. Ushbu biomarkerlar ichak shilliq qavatida kechayotgan neyetrofilli yallig'lanishni bevosita aks ettirishi, endoskopik faollik bilan yaxshi korrelyatsiya qilishi va kasallik dinamikasini baholash imkonini berishi bilan ahamiyatlidir [5]. Yallig'lanish faolligini immunologik biomarkerlar asosida baholash davolash taktikasini optimallashtirishda muhim o'rin tutadi. Ushbu yondashuv terapiya samaradorligini erta bosqichda aniqlash, dori vositalarining dozasi individual tanlash, davolashni o'z vaqtida kuchaytirish yoki kamaytirish hamda keraksiz invaziv tekshiruvlardan qochish imkonini beradi. Bundan tashqari, biomarkerlar asosida olib boriladigan monitoring kasallik ustidan barqaror nazoratga erishish va uzoq muddatli asoratlar rivojlanish xavfini kamaytirishga xizmat qiladi. Shunday qilib, NYaKda yallig'lanish faolligini baholashning zamonaviy va noinvaziv usullarini o'rganish hamda ushbu ko'rsatkichlar asosida davolash taktikasini optimallashtirish dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi [6]. Ushbu tadqiqot NYaK bilan kasallangan bemorlarda yallig'lanish faolligini baholashning klinik ahamiyatini aniqlash va olingan natijalar asosida davolash samaradorligini oshirish imkoniyatlarini o'rganishga qaratilgan..


Tadqiqot materiallari va usullari

Ushbu tadqiqot NYaK bilan kasallangan bemorlarda yallig'lanish faolligini baholash hamda ushbu ko'rsatkichlar asosida davolash taktikasini optimallashtirishga qaratilgan bo'lib, prospektiv, ochiq va qiyosiy klinik tadqiqot shaklida o'tkazildi. Tadqiqot 2022–2025 yillar davomida Samarqand shahar 1-son shifoxonasining bazasida amalga oshirildi. Tadqiqotga jami 90 nafar NYaK tashxisi tasdiqlangan bemor jalb etildi. Bemorlar ikki guruhga bo'lindi. 1-guruh (asosiy guruh) tarkibiga 50 nafar bemor jalb etildi, ularda yallig'lanish faolligi najasda aniqlangan immunologik biomarkerlar asosida baholandi va davolash taktikasi ushbu ko'rsatkichlarga mos ravishda individuallashtirildi. 2-guruh (nazorat guruhi) tarkibiga 40 nafar bemor kiritildi bo'lib, ularda davolash samaradorligi an'anaviy klinik, laborator va endoskopik mezonlar asosida baholandi. Bemorlarning yoshi 25 dan 68 yoshgacha bo'lib, tadqiqotga kasallikning yengil va o'rtacha faollik darajasiga ega bo'lgan bemorlar kiritildi. Og'ir NYaK shakllari, o'tkir ichak infeksiyalari, ichak onkologik kasalliklari, homiladorlik, shuningdek, boshqa og'ir somatik kasalliklari mavjud bo'lgan bemorlar tadqiqotdan chiqarib tashlandi. Tadqiqot boshida barcha bemorlarda kasallik faolligi klinik belgilar (diareya chastotasi, ichakdan qon ketishi, qorin og'rig'i), umumiy laborator ko'rsatkichlar hamda endoskopik tekshiruv natijalari asosida baholandi. Klinik faollikni aniqlashda umumqabul qilingan klinik indeks va shkalalardan foydalanildi. 1-guruh bemorlarida yallig'lanish faolligini noinvaziv baholash maqsadida najasda immunologik biomarkerlar aniqlandi. Najas namunalari steril konteynerlarga yig'ilib, belgilangan qoidalarga muvofiq laboratoriyaga yetkazildi. Fekal laktoferrin miqdori standart test-to'plamlardan foydalangan holda yarim avtomatik immunoferment tahlil (IFA, ELISA) usuli yordamida aniqlandi. Tadqiqotda antigen–antitana reaksiyasiga asoslangan “sandwich-ELISA” prinsipi qo'llanildi. Optik zichlik ko'rsatkichlari mikroplanshet riderida 450 nm to'lqin uzunligida o'qildi va ishlab chiqaruvchi tomonidan tavsiya etilgan kalibrovka egri chizig'i asosida natijalar hisoblandi. 2-guruh bemorlarida yallig'lanish biomarkerlari tekshirilmasdan, umumiy laborator va endoskopik tekshiruv natijalari asosida baholandi. Fekal laktoferrin ko'rsatkichlari klinik va endoskopik natijalar bilan qiyosiy tahlil qilindi. 1-guruhda biomarkerlar darajasiga qarab davolash taktikasi qayta ko'rib chiqildi, ya'ni bazis terapiya dozalari optimallashtirildi yoki qo'shimcha dori vositalari buyurildi. Biomarkerlar ko'rsatkichlarining pasayishi yallig'lanish faolligining kamayishi va davolash samaradorligining ijobiy belgisi sifatida baholandi. Davolash barcha

bemorlarda amaldagi milliy va xalqaro klinik tavsiyalarga muvofiq olib borildi. Tadqiqot davomida bemorlar dinamik kuzatuv ostida bo'lib, klinik holati va laborator ko'rsatkichlari belgilangan muddatlarda qayta baholandi. Olingan ma'lumotlarga statistik ishlov berish zamonaviy statistik dasturlar yordamida amalga oshirildi. Natijalar o'rtacha qiymat va standart og'ish ko'rinishida ifodalandi. Guruhlararo taqqoslashda Student t-testi yoki Mann-Whitney testi, dinamik ko'rsatkichlarni baholashda esa paired t-test yoki Wilcoxon testi qo'llanildi. Klinik va laborator ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlik korrelyatsion tahlil yordamida aniqlandi. Statistik ahamiyatlilik darajasi $p < 0,05$ deb qabul qilindi.

Tadqiqot natijalari va uning muhokamasi.


Reabilitatsiya yakunlangandan keyin bronxial astma bilan kasallangan bemorlar SF-36 va tashqi nafas funksiyasi (spirografik ko'rsatkichlar) o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik baholandi. 1-guruh ($n=50$) bemorlarida o'tkazilgan tahlil natijalari SF-36 so'rovnomasi bo'yicha jismoniy va ruhiy holat bilan spirografik parametrlar, xususan FEV_1 (%), FVC (%) va PEF o'rtasida kuchli ijobiy korrelyatsiya mavjudligini aniqlandi. SF-36 jismoniy faoliyat ko'rsatkichi bilan FEV_1 (%) o'rtasida $r = 0,72-0,78$, SF-36 ruhiy salomatlik ko'rsatkichi bilan FEV_1 o'rtasida esa $r = 0,68-0,75$ darajasida ishonchli bog'liqlik kuzatildi ($p < 0,01$). Reabilitatsiya tadbirlari natijasida nafas yo'llari o'tkazuvchanligi yaxshilangan sari bemorlarning hayot sifati ham parallel ravishda oshganini aniqlandi. Aksincha, 2-guruh ($n=40$) bemorlarida SF-36 ko'rsatkichlari bilan spirografik parametrlar o'rtasida faqat o'rtacha yoki sust korrelyatsiya qayd etildi.



1-rasm. Birinchi guruh bemorlarning muolajalardan oldingi korrelyatsion natijalari.

Davolanishdan oldin o'tkazilgan korrelyatsion tahlil natijalariga ko'ra, fekal laktoferrin miqdori bilan nospetsifik yarali kolitning klinik faollik ko'rsatkichi o'rtasida sezilarli ijobiy bog'liqlik aniqlandi. Korrelyatsiya koeffitsientining yuqori bo'lishi fekal laktoferrin miqdori oshgani sayin klinik alomatlarining ham parallel ravishda


kuchayishini ko'rsatadi. Ushbu statistik jihatdan ahamiyatli bog'liqlik ($r < 0,05$) fekal laktoferrinning kasallik faolligini aks ettiruvchi sezgir va ishonchli biomarker ekanligini tasdiqlaydi. Aniqlangan ijobiy korrelyatsiya ichak shilliq qavatidagi faol neytrofil yallig'lanish klinik ko'rinishlar bilan bevosita bog'liq ekanligini ko'rsatmoqda. Fekal laktoferrin miqdorining yuqori bo'lishi ichak shilliq qavatidagi yallig'lanishli jarayonni, to'siq vazifasining buzilishini aks ettiradi va natijada ich ketishi, ichakdan qon ketishi va qorin og'rig'i kabi klinik alomatlar bilan namoyon bo'ladi. Bu holat fekal laktoferrinning nafaqat laboratoriya ko'rsatkichi, balki kasallik patogenezini to'g'ridan-to'g'ri aks ettiruvchi biomarker ekanligini ko'rsatadi. Davolanishdan oldingi bosqichda fekal laktoferrin va klinik faollik o'rtasidagi yaqin bog'liqlik kasallikning dastlabki faolligini baholashda ushbu biomarkerdan foydalanish mumkinligini asoslaydi. Bu davolanishdan oldin bemorlarni guruhlarga ajratish, kasallikning og'irlik darajasini aniqlash va individual davolash usulini tanlash uchun muhim ahamiyatga ega. Korrelyatsion tahlil natijalariga ko'ra, fekal laktoferrin nospetsifik yarali kolitda yallig'lanish faolligini baholash uchun klinik va ilmiy asoslangan biomarker hisoblanadi hamda uni davolanishdan oldin baholash algoritmlariga kiritish maqsadga muvofiqligini tasdiqlaydi.



2-rasm. Birinchi guruh bemorlarning kuzatuv davridagi korrelyatsion natijalari

Yuqoridagi ikkinchi rasmdagi diagrammada muolajalardan 1, 3 va 6 oy o'tgach, fekal laktoferrin darajalarining o'zgarishi va ularning klinik holat bilan aloqasi korrelyatsion tahlil orqali baholandi. Tadqiqot natijalari davolashdan so'ng ichak yallig'lanishi faolligining asta-sekin pasayishini va bu o'zgarishlarning klinik yaxshilanish bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatdi. Davolashdan bir oy o'tgach, fekal laktoferrin darajalari klinik faollik ko'rsatkichlari bilan o'rtacha ijobiy korrelyatsiyani saqlab qoldi ($p < 0,05$). Bu davolash boshlangandan keyingi dastlabki davrda yallig'lanish jarayoni to'liq to'xtamaganini, biroq uning faolligi sezilarli darajada pasayganini ko'rsatadi. Ushbu

bosqichda fekal laktoferrin darajalarining pasayishi klinik simptomlarning yengillashishi bilan bir vaqtda sodir bo'lishi, mazkur biomarkerni davolashga erta javobni baholash vositasi sifatida qo'llash mumkinligini tasdiqlaydi. Davolashdan uch oy o'tgach, fekal laktoferrin va klinik faollik ko'rsatkichlari o'rtasidagi ijobiy korrelyatsiya zaiflashdi, ammo statistik jihatdan ahamiyatli bo'lib qoldi ($p < 0,05$). Bu davrda bemorlarning aksariyatida yallig'lanish faolligining barqaror pasayishi kuzatildi va ular klinik remissiyaga yaqinlashdi. Najasda laktoferrin darajasining pasayishi ichak shilliq qavatidagi neytrofil yallig'lanishning sezilarli darajada kamayganligidan dalolat berdi. Davolashdan 6 oy o'tgach, fekal laktoferrin darajalari va klinik faollik ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlik minimal yoki ahamiyatsiz darajagacha tushdi ($p > 0,05$). Bu bemorlarning aksariyatida klinik va laboratoriya remissiyasiga erishilganini, yallig'lanish jarayoni nazorat ostida ekanligini ko'rsatadi. Fekal laktoferrinning me'yorlashuvi yoki me'yorga yaqin qiymatlari davolashning uzoq muddatli samaradorligining muhim ko'rsatkichi sifatida baholandi. Shunday qilib, davolashdan 1, 3 va 6 oy o'tgach natijalarning korrelyatsion tahlili shuni ko'rsatdiki, fekal laktoferrin yallig'lanishli ichak kasalliklarida yallig'lanish faolligini kuzatish uchun sezgir va ishonchli biomarker hisoblanadi. Fekal laktoferrin darajalarining asta-sekin pasayishi va uning klinik holat bilan bog'liqligining zaiflashishi davolash samaradorligini xolisona baholash, davolash strategiyalarini takomillashtirish va kasallikni barqaror nazorat qilishga erishish uchun ushbu ko'rsatkichdan foydalanish maqsadga muvofiqligini tasdiqlaydi.



3 - rasm. Ikkala guruhlardagi bemorlarning hayot sifadi darajasi natijalari.

Kuzatuv davrida 1- va 2-guruh bemorlarining hayot sifatini baholash maqsadida SF-36 so'rovnomasi ko'rsatkichlari tahlil qilindi hamda ularning kasallik faolligi va klinik holati bilan aloqasi korrelyatsion tahlil orqali o'rganildi. SF-36 ning asosiy sohalari, jumladan jismoniy faoliyat (JF), umumiy salomatlik (USS), hayotiy quvvat (HQ), ijtimoiy faoliyat (IF) va ruhiy salomatlik (RSS) alohida ko'rib chiqildi. Biomarkerlar asosida

davolash strategiyalari individuallashtirilgan 1-guruh bemorlarida SF-36 ko'rsatkichlari va kasallik faolligi o'rtasida sezilarli salbiy korrelyatsiya aniqlandi ($p < 0,05$). Ya'ni, yallig'lanish faolligi pasayishi bilan SF-36 ballari oshishi kuzatildi. Ayniqsa, jismoniy faoliyat, umumiy salomatlik va hayotiy quvvat sohalarida yuqori darajadagi korrelyatsiya qayd etildi. Bu esa davolash samaradorligi nafaqat klinik-laborator ko'rsatkichlarda, balki bemorlarning subyektiv hayot sifati o'lchovlarida ham namoyon bo'lishini ko'rsatadi. 2-guruh bemorlarida SF-36 ko'rsatkichlari va kasallik faolligi o'rtasidagi bog'liqlik kuchsiz yoki o'rtacha bo'lib, ba'zi sohalarida statistik ahamiyatga ega bo'lmadi ($p > 0,05$). Ushbu guruhda SF-36 ko'rsatkichlarining yaxshilanishi sekinroq kechdi va hayot sifatining ayrim tarkibiy qismlarida notekis o'zgarishlar kuzatildi. Bu holat davolash usuli faqat klinik mezonlarga asoslanganligi bilan izohlanadi. Korrelyatsion tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, 1-guruh bemorlarida SF-36 natijalari klinik-laborator yaxshilanish bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu hayot sifatining barqaror yuksalishini ta'minlaydi. 2-guruhda esa klinik yaxshilanish fonida hayot sifati ko'rsatkichlarining tiklanishi to'liq va izchil bo'lmadi.

Shunday qilib, kuzatuv davrida o'tkazilgan korrelyatsion tahlil shuni ko'rsatdiki, biomarkerlar asosida davolashga shaxsiy yondashuv bemorlarning hayot sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi. SF-36 so'rovnomasi natijalari kasallik faolligining pasayishi bilan parallel ravishda yaxshilandi, bu esa mazkur yondashuvning klinik va ijtimoiy samaradorligini tasdiqlaydi. Bu tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, sog'liqni saqlash tizimida NYaKni davolashda alohida yondoshuvlarni joriy etish uchun ilmiy asos bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tiongco R. E. et al. Diagnostic efficiency of fecal lactoferrin in detecting bacterial gastroenteritis: a systematic review and meta-analysis //The Egyptian Journal of Internal Medicine. – 2025. – T. 37. – №. 1. – C. 123.
2. Usta B. Ülseratif Kolit Hastalarında Fekal Biyobelirteç Düzeylerinin Araştırılması. – 2024.
3. Işık N., Kaya A., İçen H. Investigation of Protective and Therapeutic Efficacy of Lactoferrin on Neonatal Calf Diarrhea //Dicle Üniversitesi Veteriner Fakültesi Dergisi. – 2024. – T. 17. – №. 2. – C. 143-149.
4. Saco Y. et al. Bovine fecal biomarkers of intestinal inflammatory process: Calprotectin and lactoferrin, a comparative study //Research in veterinary science. – 2025. – T. 183. – C. 105500.
5. Vernia F. et al. Fecal lactoferrin and other putative fecal biomarkers in Crohn's disease: do they still have a potential clinical role? //Digestion. – 2021. – T. 102. – №. 6. – C. 833-844.
6. Chen R. et al. Fecal lactoferrin early predicts long-term outcomes in ulcerative colitis: A post-hoc analysis of the UNIFI and PURSUIT trials //United European Gastroenterology Journal. – 2023. – T. 11. – №. 6. – C. 542-550.